

AKADEMIK YUNUS RAJABIY VA UNING ILMIIY MEROSI



Javohir Nomozov

2-bosqich magistranti

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-07-04>

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek milliy musiqa san'atining yorqin namoyandasi, ulug' dahosi, taniqli sozanda va xonanda, mahoratli bastakor, mumtoz musiqa xazinaboni, akademik Yunus Rajabiyning o'tgan asr professional musiqasida tutgan o'rni va ahamiyati haqida bo'lib, unda allomaning qoldirgan ilmiy merosi baholi qudrat tadqiq etiladi.


Kalit so'zlar. maqom, bastakor, sozanda, xonanda, Yunus Rajabiy, ansambl, Shashmaqom, mumtoz musiqa.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение в профессиональной музыке прошлого столетия выдающегося представителя узбекского национального музыкального искусства, великого гения, известного инструменталиста и певца, талантливого композитора и хранителя классической музыки Юнуса Раджаби. В исследовании, насколько возможно, исследуется научное наследие этого ученого.

Ключевые слова: маком, композитор, инструменталист, певец, Юнус Раджаби, ансамбль, Шашмаком, классическая музыка.

Abstract: This article examines the role and significance of Yunus Rajabiy, a brilliant representative of Uzbek national musical art, a great genius, a renowned instrumentalist and singer, a skilled composer, and a custodian of classical music, in the professional music of the past century. The study explores, to the best of its ability, the scholarly legacy left by this academic.

Key words: maqom, composer, instrumentalist, singer, Yunus Rajabiy, ensemble, Shashmaqom, classical music.



*Kishi xizmat qilur elga, yashar u,
Hamisha yodlanib, unvoni, nomi.
Ulug' ish qildingiz, boylikni to'plab,
Tirildi siz bilan – O'zbek Maqomi...*

Sobir Abdulla

“Har bir xalq ruhiyatini ifodalovchi milliy kuy-ohanglar – aziz ona tili kabi qadri va muqaddasdir. Millatning o'tmishi va buguni, asriy orzu-istaklari va go'zal tuyg'ularini mujassam etgan ohanglar ona allalari, umrboqiy qo'shiqlaru mumtoz kuylarda rang-barang jilolanadiki, ularni tinglagan inson o'zligini anglaydi, ruhan yuksalganini his qiladi”. O'zbek xalqining boy musiqiy merosi haqida so'z ketganda, bu bebaho boylikning bizgacha etib kelishida jonbozlik ko'rsatgan ustoz san'atkorlarning ijodiy faoliyatiga to'xtalmasdan iloj yo'q. Bu o'rinda

xalqimizning ardoqli farzandi, Rajabiylar sulolasining yirik namoyandasi, atoqli bastakor,

xonanda va sozanda, O'zbekiston xalq artisti, akademik Yunus Rajabiy (1897–1976) haqida so'z yuritish ayni muddao bo'ladi.

O'zbekiston xalq artisti, Respublika Davlat mukofoti sovrindori, sozanda, hofiz va bastakor, akademik, milliy maqom san'atimiz sultoni Yunus Rajabiy ko'p qirrali ijodiy faoliyati bilan, o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi.

Yunus Rajabiy 1897 – yilda Toshkent shahrining Chaqar mahallasida tavallud topgan. Musiqa sabog'ining ilk qadamlarida u dutor va nay cholg'ularida mashq qila boshlaydi. Yosh iste'dod egasiga ustozlarning e'tibor berganligining sababi, uning xotirada saqlab qolish qobiliyati o'ta kuchli bo'lganligida edi. Darhaqiqat, u musiqiy asarni bir tinglashda boshidan to oxirigacha esida saqlab qoladigan darajadagi «quvvayi hofiza»ga ega bo'lgan. Bu uning saboq jarayonida o'zini namoyon etganligi manbalarda bayon etilgan. Yosh Yunusbek bog' qo'shnisi bo'lgan andijonlik Mirzaqosim hofizdan Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga mansub ashulalarni, xalq orasida mashhur maqom namunalari eshitib o'zlashtirib boradi.

Keyinchalik, o'zbek radiosi qoshida xalq milliy cholg'u ansambli zaminida o'zbek xalq cholg'u orkestri tuziladi. Bu dargohda 50 yil ijodiy mehnat qildi. Keyinchalik 1959 – yilda esa hozirgacha o'z foliyatini muvaffaqiyatli davom ettirayotgan maqom ansamblini tuzdi va “Shashmaqom”ni mushkilot va nasr bo'limlarini magnit tasmaga tushirdi. Bu maqom ansambli hozirgacha ustozning ijrochilik maktabi ruhida faoliyatini davom ettirmoqda.

Xonandalikni bastakorlik bilan uyg'unlikda olib borgan san'atkor o'zbek musiqali drama janrida samarali ijod etib, kuylar, qo'shiqlar, raqs kuylari, xor asarlari yozdi.

Ustoz Yunus Rajabiyning serqirra ijodiy faoliyati respublikamiz musiqa madaniyatining yangicha ruh bilan shakllanishi va taraqqiyoti borasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ustoz o'zidan yuzlab shogirdlarni qoldirdi. Tolibjon Sodiqov, Doni Zokirov, Dadaali Soatqulov, Nabijon Xasanov, Saidjon Kalonov, Orif Qosimov, Faxriddin Sodiqov, Nazira Axmedova, Turg'un Karimov, Ortiqxo'ja Imomxo'jaev, Mahmud Yunusov, Turg'un Alimatov, Orifxoja Alimaxsumov, Siroj Aminov, Is'hoq Katayev, Eson Lutfullayev singari mashhur hofiz va sozanda bastakorlar Yunus Rajabiy ijrochilik maktabining vakillaridir. Maqomdon xonandalar, xalq cholg'u va ashula ansambllari, musiqali drama teatrlari uning ajoyib dilrabo qo'shiq va kuylarini ijro etmoqdalar, asarlarni sahnalashtirmoqdalar. Uning asarlari efirda, zangori ekranlarda yangramoqda. Yunus Rajabiy oilaviy sulolasi o'zbek san'atining rivojiga muhim hissa qo'shmoqdalar.

XX asr maqom san'ati rivoji tarixida asosiy o'rinni egallaydigan serqirra ijodkor, ulug' arbob Yunus Rajabiy umri davomida faol bastakorlik faoliyati bilan birga bir qancha tashkilot va ansambllarga rahbarlik ham qiladi. 1925-1926-yillari Samarqand musiqali teatrida musiqa rahbari bo'lib faoliyat olib borish jarayonida, “Abulfayzxon”, “Yorqinoy”, “Padarkush” spektakllarini musiqalar bilan bezab, ijro etishga muyassar bo'ladi. 1926 – yili “Layli va Majnun” (Sh.Xurshid pyesasi) dramasiqa musiqa bastalaydi. 1938 – yili O'zbekiston kompozitorlari uyushmasiga a'zolikka qabul qilinadi. Yunus Rajabiy bir qancha musiqali dramalar, hammualliflikda yaratilgan operalar, mumtoz an'analar ruhida yaratilgan lirik qo'shiqlar ijodkoridir.

Musiqashunos olim Otanazar Matyoqubov o'zining “Maqomot” nomli kitobida Yunus Rajabiy shuhrati haqida quyidagicha yozadi: “San'atkorning o'z ishiga har tomonlama ijodiy yondoshishi – ustoz-murabbiy, ijrochi, tadqiqotchi va arbob sifatida unga keng ommaviy shon-shuhrat olib keldi” [7, 329-b].

Yana bir musiqashunos olim Soibjon Begmatov Yunus Rajabiyning musiqa san'ati rivojida olib borgan faoliyati ko'p qirrali ekanligini e'tirof etib, quyidagi fikrni bildiradi: “Birinchi, ijrochilik; ikkinchi, yo'nalish – bastakorlik; uchinchi – an'anaviy musiqa namunalari notaga olish bilan bog'liq etnograf-musiqashunoslik; to'rtinchi – maqom ansambliga rahbarlik; beshinchi – o'zbek xalq va mumtoz musiqalarini maqomchilar ansambliga o'rgatib, magnit tasmalariga yozdirgan va meros qilib qoldirgan xazinabon; oltinchi – betakror shogirdlarning kamolga yetishida rahnamolik qilgan mehribon ustoz, yettinchi – musiqa ijrochiligi, ijodiyotida ibrat sifatida faoliyat olib borgan yagona akademikdir” [9, 53-b]. Mana allomaning serqirra ilmiy va ijodiy faoliyatiga berilgan baho. Darhaqiqat, ulug' alloma o'zining ulkan qobiliyati ila serqirra va mashaqqatli faoliyati davomida o'zbek mumtoz va folklor musiqasi bobida katta

muvaqqiyatlarga erishdi, o'z nomini tarixga muhrlab, Yunus Rajabiy maktabi davomchilarini tarbiyaladi.

Akademik Yunus Rajabiy o'zining ilmiy faoliyati natijasida bir qancha yutuqlarga erishdi. 1955 – yildan 1959 – yillargacha davomida Yunus Rajabiy o'zining folklorshunoslik ilmida olib borgan ishlarini tarixga muhrlashga erishadi. 1500 dan ortiq xalq kuy va ashulalari, yalla va laparlari, terma va dostonlaridan namunalarni hamda maqom namunalari (Buxoro Shashmaqomi va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari) besh jildidan iborat "O'zbek xalq muzikasi" kitoblarida ilmiy mantiqqa mos ravishda nashrga tayyorlashining o'zi ulkan jasorat namunasi edi. Bu kitoblar "O'zbek xalq muzikasi" nomida musiqashunos Ilyos Akbarov tahriri ostida 1-tom 1955 – yilda, 2-tom 1957 – yilda, 3-tom 1959 – yilda, 4-tom 1958 – yilda, 5-tom 1959 – yilda Buxoro maqomlari nomida Toshkentda chop etiladi.

Musiq merosimizning ko'plab namunalari "O'zbek xalq muzikasi" kitobining 1-4 jildlarida o'z aksini topgan. Ushbu kitoblarning har biri uchta katta bo'limlardan tashkil topgan. Birinchi bo'lim Farg'ona – Toshkent maqom yo'llari, maqom yo'llarida yaratilgan yirik cholg'u va ashula asarlarini qamrab olgan. Ikkinchi bo'limda folklor namunalari, xalq marosim kuy-qo'shiqlari va uchinchi o'sha davr bastakorlarining shu davrda yaratgan asarlari o'rin olgan.

Musiqashunos M.Ahmedov o'zining musiq merosimiz bilimdoni Yunus Rajabiyga bag'ishlangan kitobida shunday deydi: "Yunus Rajabiy o'zbek xalq musiqasini sistemali ravishda to'plash jarayonida xilma-xil ashula, qo'shiq janrlarini to'plash va yozish tajribasini boyitib va mukamallashtirib bordi. To'plovchi xalq kuylarini notaga yozganda ham, to'plaganda ham avvalo, har bir kuyning xarakteri, shakli va tuzilishi qonunlarini o'rgandi"[5]. Shunday ekan Yunus Rajabiy musiq merosimiz namunalari nafaqat amaliy va ijodiy hatto ilmiy-nazariy bilganligini ham aniqlashdi. Serqirra qobiliyat egasi Yunus Rajabiy haqiqiy olimlik xususiyatlariga ega san'atkor bo'lgan edi.

Yunus Rajabiy haqida gap ketganda ko'zimiz oldiga birinchi navbatda Shashmaqom keladi. 1959 – yilda nashrdan chiqqan "O'zbek xalq muzikasi" kitobining 5-jildi Buxoro maqomlari nomida bosildi. Unda mumtoz musiq durdonasi Shashmaqomning cholg'u va ashula bo'limlaridagi musiqiy namunalar, turkumlar o'z ifodasini topdi.

1959 – yilda Yunus Rajabiyning rahnamoligida O'zbekiston teleradiosi qoshida "Maqomchilar" ansambli tashkil etildi. Unga Yunus ota vafot etgunlarigacha rahbarlik qildilar ya'ni, 1976 – yilgacha. Yunus Rajabiy mumtoz musiq namoyondalari, maqomdonlarga rahnamolik qilib samarali va oqilona faoliyat olib bordilar. Aynan ana shu davr, ana shu yillar Yunus Rajabiyning eng gullagan, sermahsul davri bo'ldi.

1960 – 1966 – yillar alloma ijodida Shashmaqomni qayta yozish jarayoni bo'lib, o'z davrining eng yetuk sozanda va hofizlari bilan birgalikda Shashmaqomdagi har bir asar qayta o'rganilib, kamchiliklari va yetishmayotgan qismlari to'ldirilib yana ham mukammalroq nota kitobi Yunus Rajabiy tomonidan tayyorlandi. Natijada, 1966 – 1975 – yillarda Shashmaqom nomida yozib oluvchi Yunus Rajabiy, musiqashunos Fayzulla Karomatov tahriri ostida Toshkentda olti tomlik shaklida chop etildi: 1-jild – Buzruk, 2-jild – Rost, 3-jild – Navo, 4-jild – Dugoh, 5-jild – Segoh, 6-jild – Iroq.

Yunus Rajabiyning yana bir qirralaridan deb aytishimiz mumkinki, uning mehribon va mahoratli ustoz ekanligi. U qo'l ostidagi maqom ansambli jamoasiga Shashmaqom namunalari chiroyli o'rgatdi. Tarixiy kutilgan amaliy ishlarni amalga oshirdi. Bu Shashmaqom kuy va ashularini magnit tasmlarga muhrlanishi edi. Ushbu amaliy ishlar tinglovchilar, musiqachilar, qiziquvchilar va musiqashunoslar uchun katta sovg'a bo'ldi. Musiqamiz durdonasi Shashmaqomning nafaqat nota yozuvi balki endi magnit tasmlarda eshitish va tasavvur hosil qilish uchun zapislari ham mavjudligi soha rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi.

Shashmaqom nota kitoblarini tayyorlashda Yunus Rajabiy har tomonlama ilmiy yondoshishga harakat qiladi. Unda Mushkilot bo'limi qismlaridagi xona va bozgo'ylar ham, Nasr bo'limidagi ashulalarning xatlari joylashuvi ham keltiriladi. Hattoki, mundarijada har bir maqom namunalari kimdan yozib olinganigacha keltirib o'tilgan. O'zi sozanda, xonanda bo'la turib

shunday mukammal kitobni yarata olgani Yunus Rajabiyning ilmiy tafakkuri qay darajada ekanligini ko'rsatib turibdi.

Akademik Yunus Rajabiy o'zining sermahsul va mashaqqatli ilmiy – ijodiy faoliyati misolida bugungi kunda ham o'rnak bo'la oladigan shaxsdir. Buni allomaning hayoti, ijodi va faoliyatini o'rganish natijasida anglash mumkin. U o'zida shunday siymoni yaratdiki u siymo ham ijrochi – sozanda va hofiz, ham bastakor, ham tashkilotchi rahbar, ham folklorshunos etnograf, ham ustoz-murabbiy, ham ulkan musiqa olimidir. Bunday yetuk shaxsning nomi hali zamonlar osha dovrug'i doston bo'ladi.

Yunus Rajabiy olim sifatida mumtoz va xalq musiqamizni chuqur o'rgandi va o'rgatdi. O'zining noyob asarlariga muhrlab ketdi. Shashmaqomga bor e'tiborini qaratdi va uni nomi bilan tarixga cheksiz obro'-e'tibor bilan kirdi. Musiqa merosimizni asrab qolish va uni rivojlantirishga jiddiy kirishdi va buning uddasidan chiqdi. Hali bironta san'atkor akademik Yunus Rajabiyning ulkan natijalarini qaytara olmayapti. Shu sababdan ham Yunus Rajabiyning amaliy, ijodiy, ilmiy faoliyati bugunda ham benihoya qadrli.

Yunus Rajabiy o'tgan asrning 20 – yillaridan boshlangan faoliyati, qobiliyati, kuch va qudratini o'zbek musiqasiga, ijrochilik madaniyatiga, milliy musiqa ijodiga, xalq musiqasini va mumtoz musiqamizni targ'ib qilishga, uni o'rganishga va o'rgatishga bag'ishladi. Allomaning hayoti, ijodi, ilmiy-amaliy va ijodiy faoliyati bilan tanishar ekanmiz uning o'zbek musiqa madaniyati tarixida tutgan o'rni beqiyos ekaniga ishonamiz. Undan o'rnak olamiz, saboq olamiz. Uning nota kitoblaridan foydalanib o'zbek mumtoz va xalq musiqamizni o'rganishga kirishamiz. Ijodiy asarlaridan: kuy, qo'shiq va ashularidan bahra olib zavqlanamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Муסיқа ижодиёти масалалари. Мақолалар тўплами. Тошкент, 1997.
- 2.Ўзбек халқ музикаси. Тўпловчи ва нотага олувчи Юнус Ражабий. Ил.Ақбаров таҳрири остида. Тошкент, I том, 1955; II том, 1957; III том, 1959; IV том, 1958; V том, Бухоро мақомлари, 1959.
- 3.Шашмақом I-VI томлар. Ёзиб олувчи Юнус Ражабий. Ф. Кароматов таҳрири остида. Тошкент, 1966-75.
- 4.Юнус Ражабий. Музыка меросимизга бир назар. Тошкент, 1978.
- 5.М.Аҳмедов. Юнус Ражабий. Тошкент, 1980.
- 6.Rajabiyнома. Tuzuvchi: Hasan Rajabiy. Toshkent, 2016.
- 7.О.Матёқубов. Мақомот. Тошкент, 2004.
- 8.О.Иброҳимов “Yunus Rajabiy haqida so'z” maqolasi.
- 9.S.Begmatov. Bastakorlar ijodi. Toshkent, 2017.
- 10.Internet saytlari: Maqom.uz, Meros.uz, Shashmaqom.uz, Xorazmiy.uz, Classicmusic.uz.